

RAVISH VA SIFATINING O'XSHASH HAMDA FARQLI JIHATLARI

Shodiyeva Umida Ro'zimurod qizi

*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 26-sonli mакtabning ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya: O'zbek tilida so'z turkumlari,jumladan ravish va sifatning o'xshash shu bilan birga farqli jihatlarini o'rghanish. Ikkala so'z turkumini yasalish tartibi,darajalanishi,gapda qaysi vazifani bajarishini tahlillash. Yasama va tub ekanligini aniqlashtirish. Nazariy misollar orqali isbotlash.

Kalit so'zlar: Ravish, yasalishi,darajalanishi,sifat,belgi bildirishi.

Ravish: Harakat va holatning belgisini, belgining belgisini (sifat va ravishning), ba'zan predmetning (ot) belgisini bildiradigan mustaqil so'z turkumi ravish deyiladi. Masalan: Jo'raboyev ham jimgina o'tirib hammaga razm soldi.

Ota shoshganidan sovuqda ko'ylakchang tashqariga chiqdi. (Q.Hikmat).

Ravish ish-harakatning bajarilish tarzi (astoydil urindi), payti (hozir keldi), o`rni (yuqoriga intildi), miqdori (kam gapirdi), darajasi (nihoyatda achindi), sababi (noiloj ko`ndi) va maqsadi (jo`rttaga indamadi)ni anglatadi.Ayrim ravishlar ba'zan otga bog`lanib, predmetning noaniq miqdorini (ko`p kitob), sifat va ravishning o`ziga bog`lanib, belgini kuchini; darajasini, o'xshashligini (obdon pishiq, ancha ilgari, toshday qattiq) ifodalaydi. Shu ma'no xususiyatlariga ko`ra ravish qanday? qay tarzda? qachon? qayerga? qayerda? qayerdan? qancha? qay darajada? nega? nima maqsadda? kabi so`roqlariga javob bo`ladi.

Sifat — predmet belgisini bildiruvchi so'zlar turkumi. Grammatikada belgi so'zi keng tushunchali bo`lib, u belgini rang-tus, hajm, shaklko`rinish, xususiyat va sh.k.ga ko`ra bildiradi: qizil, keng, yoqimli va boshqa Shu xususiyatlariga ko`ra, sifatlar ma'nosiga qarab bir necha turga bo`linadi: rang-tus bildiruvchi sifatlar — oq, sariq, qizil, nimrang kabi; mazata'm bildiruvchi sifatlar — shirin, nordon, achchiq, bemaza kabi; xususiyat bildiruvchi sifatlar — mehribon, sodda, mug'ambir, yuvosh kabi; shaklko`rinish bildiruvchi sifatlar — gavdali, novcha, uzunchoq, yassi kabi; hajmo'lchov bildiruvchi sifatlar — keng, tor, katta, og'ir, yengil kabi va boshqalar.

Sifat so'z turkumi kabi ravish ham belgi bildiradi. Lekin sifat, asosan, predmetning belgisini, ravish esa, asosan, ish-harakatning belgisini, belgining belgisini bildiradi.

Ravish belgi bildiruvchi so`z bo`lgani uchun sifat kabi belgini (harakatning belgisini) darajalab, chog`ishtirib ko`rsatish xususiyatiga ega. Biroq ravishlarda daraja anglatish sifatlardagi kabi taraqqiy qilgan emas. Ravish ham uch daraja ko`rinishiga ega: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja. Daraja ma'nosi sifat darajalaridagi vositalarning o`zi bilan ifodalanadi. Belgini darajalab ifodalash, asosan, holat ravishlari (ayrim payt va miqdor)ga xos.Oddiy daraja. Oddiy darajada ravish ish-harakat belgining normal holatda (chog`ishtirilmagan holatda) ekanligini bildiradi va o`ziga xos morfologik ko`rsatkichga emas: Usmonjon gunohkorona jilmaydi (S.Z.).

Qiyosiy daraja. Qiyosiy darajadagi ravish harakat belgisining boshqa belgi bilan chog`ishtirish orqali belgining kamligi, kuchsizligi, ko`pligi, ya`ni kuchaytirish ma`nosini ko`rsatadi va ravishlarga -roq affiksini qo`sish bilan hosil qilinadi: astaroq, ozroq, barvaqtroq, keyinroq kabi: Zaynab ilgariroq, Kumush keyinroq ichkariga kirishdi (A.Qodiriy). Ba'zan qiyosiy darajadagi ravishdan oldin sal, yana, tobora kabi ravishlar keladi. Bunday holda kuchaytiruv va kuchsizlantiruv ekspressiv yo`l bilan yanada orttirilgan bo`ladi: Sal burunroq o`tkazilsa, ancha bo`y bergen bo`ladi (Sh.Rashidov).

Orttirma daraja esa ravishdan oldin juda, nihoyatda, eng, hammadan kabi so`zlarni keltirish bilan hosil qilinadi va harakat belgisining normal holatdan o`ta ortiqligini, kuchaytirilganligini ifodalaydi: Bu yurtda eng avval senda tong otar, Eng keyin tark etar seni quyoshing (E.Vohidov). Imon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular bir-birisiz durust emas (Hadisdan)

Sifat ba'zan fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin. Bunday holda sifat ravish kabi gapda hol vazifasini bajaradi: U do'stining yuragida kechayotgan tuyg'ularni yaxshi tushunardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamrayev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili (darslik). - Toshkent: MOLIYA- IQTISOD, 2007-yil.
2. M.Hamrayev. Ona tili. - Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat", 2019. 150-155.
3. M.Hamrayev. Ona tilidan lisoniy tahlil qoliplari. - T.: TDPU, 2019.
- 4.N. Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. "Navro'z" Toshkent-2016
- 5.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

AXBOROT MANBALARI:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.Uz